

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

HAYTBAEVA SAYYORA RAXIMBERGANOVNA

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH VA O'QUVCHILAR KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH
(BIOLOGIYA FANINI O'QITISH MISOLIDA)**

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Haytbayeva Sayyora Raximberganovna

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish va o’quvchilar kompetentligini rivojlantirish (Biologiya fanini o’qitish misolida)..... 3

Хайтбаева Сайёра Рахимбергановна

Совершенствование содержания образования и развитие компетентности учащихся на основе компетентностного подхода (на примере преподавания биологии)..... 25

Haytbayeva Sayyora Raximberganovna

Improving the content of education and developing students' competence based on the competence approach (in the example of teaching biology)..... 47

E’lon qilingan ishlar ro’uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 51

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

HAYTBAEVA SAYYORA RAXIMBERGANOVNA

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH VA O'QUVCHILAR KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH (BIOLOGIYA FANINI O'QITISH MISOLIDA)**

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped8031 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz.) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Saparov Kalandar Abdullayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karaxonova Lobar Musoxonovna
pedagogika fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Ametov Yakub Idrisovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil «20» sentyabr kuni soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu.info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№205-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «05» sentyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil «05» sentyabrdagi №1-raqamli reestr bayonnomasi)



M.A. Jumanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

M.K. Begjanov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d.,
dotsent

Ya.I. Ametov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim jarayonlariga ilg'or pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, ta'lim tizimini isloh qilishning muhim omillaridan biri sifatida ta'lim oluvchilarning kompetentligini rivojlantirishning interfaol shakllarini amaliyotga tatbiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, AQSh (Axborot tarmoq ma'lumotlar bazasi), Buyuk Britaniya (Kasbiy maslahat tashkilotlari), Fransiya (Ta'lim va kasb bo'yicha Milliy axborotlar byurosi (ONISEP)) kabi xorijiy davlatlar tajribasi o'quvchilarda kompetentlikni rivojlantirish modeli va didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish lozimligini ko'rsatdi. Shu bilan birgalikda, biologiya ta'limida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish, inson va tabiat munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda biologik kompetentligini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirishda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Dunyo ta'limiy amaliyotida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish jarayonini yuqori standartlarga olib chiqish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va kompetensiyaviy yondashuv ta'limni boshqarishning muhim mexanizmi ekanligini ilmiy asoslash, umumta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish usullari va o'ziga xosliklarini tadqiq etishga doir bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda biologiya fanini o'qitish mazmunini kompetensiyaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, modernizatsiya qilish, unga ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishga bo'lgan e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish; o'qitish usullarini takomillashtirish; ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, muqobil yondashuvlarni o'rganishga va ilmiy asoslashga yo'naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish"¹ kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishida "Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish"² vazifasi belgilab qo'yilgan. Ushbu me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalardan asosiy maqsad ta'lim muassasalarida ta'lim mazmunini takomillashtirish va ta'lim oluvchilarning kompetentligini rivojlantirishga erishish hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-con¹

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. (44-maqsad).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son, 2020 yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmonlari, 2019 yil 16-yanvardagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4119-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 avgustdagi “Kimyo va biologiya ta’lim yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son, 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son, 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son, Qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son, Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni hamda 2020 yil 8 avgustdagi “Kimyo va biologiya ta’lim yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son Qarori³ mazkur tadqiqot ishining nazariy-metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy etish orqali ta’lim oluvchilarning kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari O.Musurmonova, B.Mirzaxmedov, A.Abduqodirov, N.Azizxodjayeva, N.A.Muslimov, M.Kurbonov, J.Tolipova, U.Inoyatov, B.Xodjayev, M.Vahobov, O.Qo‘ysinov va boshqa shu kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida M.A.Fedulova, A.Xutorskiy, I.A.Kolesnikova, A.K.Markova, L.M.Mitina, L.A.Petrovskaya, S.I.Osipovalar tomonidan kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va ta’lim oluvchilarning kompetentligini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 avgustdagi “Kimyo va biologiya ta’lim yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son Qarori.

Xorijiy davlatlarda V.A.Skopyuk, U.Kunter, U.Klusman, N.Xomskiy, Dj.Raven, E.F.Zeer kabi olimlarning tadqiqot ishlarida kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyati va ahamiyati o'rganilgan.

Biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish, biologiya ta'limi jarayonlariga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish hamda ta'lim samaradorligini oshirish masalalari A.T.G'ofurov, J.O.Tolipova, S.S.Fayzullaev, G.S.Ergasheva, I.T.Azimov, L.M.Qoraxonova, M.Ibodova, U.E.Raxmatov, M.B.Ongarov, R.Madatov va boshqalar tadqiqotlarida o'rganilgan.

Tahlillarga ko'ra, umumta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish masalalari bo'yicha ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, biologiya fanini o'qitish mazmunini takomillashtirishda o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, maktabgacha va maktab ta'limi tizimida ushbu masalani yanada takomillashtirish mexanizmlari bugungi zamon talablariga mos darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170923121 – “Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” (2017-2020 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya ta'limi mazmunini takomillashtirish va o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya fanidan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini xalqaro baholash dasturlari TIMSS, PISA talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlariga uyg'unlashtirish hamda interfaol ta'lim metodlari asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish orqali tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish;

biologiya ta'limida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish tuzilmasini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan faoliyatga tayyorlash mazmuni hamda STEAM yondasuvining didaktik maqsadlari bilan integratsiyalash asosida takomillashtirish;

elektron axborot ta'lim muhitida kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya ta'limining zamonaviy axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish imkoniyatlarini joriy etishga qaratilgan elektron axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

biologiya ta'limida o'quvchilarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmunini ta'limni axborotlashtirish talablari hamda didaktik maqsadlari bilan integratsiyalash asosida “Kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya ta'limi mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish” modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kompetensiyaviy yondashuv asosida umumta'lim maktablari biologiya ta'limida o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Namangan viloyati 5-umumta'lim maktabi va Namangan shahar 74-umumta'lim maktabi, Toshkent shahar 178-IDUM va 302-umumta'lim maktabi, Xorazm viloyati 29-umumta'lim maktabi va 7-umumta'lim maktablarining jami 496 nafar o'quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov, so'rovnomalar, test, suhbat, pedagogik monitoring, modellash, shuningdek, olingan natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya fanidan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini xalqaro baholash dasturlari TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study), PISA (Programme for International Student Assessment) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, loyiha ishlariga uyg'unlashtirish hamda ta'limning innovatsion usullari (Muammoli vaziyat, Keys topshiriqlari, SVOT-tahlil, Loyiha, Qaror qabul qilish) asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish orqali tayanch va fanga oid kompetensiyasi rivojlantirilgan;

biologiya ta'limida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish tuzilmasi (komponentlari, mezonlari, ko'rsatkichlari) kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan faoliyatga tayyorlash mazmuni (metodik-tashkiliy, texnologik jarayonli, kommunikativ) hamda STEAM yondasuvining didaktik maqsadlari (bilimlarga tayanib birgalikda ishlash, nazariya va amaliyot birligi, fanlararo integratsiya, kasbiy sohalarga tayyorgarlik) bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

elektron axborot ta'lim muhitida kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya ta'limining zamonaviy axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish imkoniyatlarini joriy etishga qaratilgan elektron axborot ta'lim resurslari (Hot Potatoes 6, Ispring Quiz Maker 8) ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

biologiya ta'limida o'quvchilarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmuni (metodik-tashkiliy, texnologik jarayonli, kreativ) ta'limni axborotlashtirish talablari hamda didaktik maqsadlari (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-faoliyatli, shaxsiy-refleksiv) bilan integratsiyalash asosida "Kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya ta'limi mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish" modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish mazmuni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish hamda o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minoti (metodik tavsiyalar, uslubiy

qo'llanma, darslik hamda umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

umumta'lim maktab o'quvchilarning ta'yanch va fanga oid kompetensiyasining pedagogik imkoniyatlarini rivojlantiriga yo'naltirilgan umumta'lim maktablarining 7-sinf va 10-sinflar uchun "Biologiya" darsligi yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan.

kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan tajrib-sinov ishlari o'tkazilib, olingan natijalar asosida ilmiy-metodik tavsiyalar va takliflar ishlab chiqilgan.

biologiya darslarida o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan elektron axborot ta'lim resurslari (Hot Potatoes 6, Ispring Quiz Maker 8) hamda "Kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya ta'limi mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetensiyasini rivojlantirish" modeli ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbir etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati biologiya fanini o'qitish mazmuni, unda o'quv mashg'ulotlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish va o'tkazish metodikasining takomillashganligi, biologiya fanini o'qitish samaradorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy metodik ta'minoti ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosalari va natijalarining biologiya ta'limida qo'llanilayotgani hamda takomillashtirilgan metodik tizim va darsliklardan yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishda foydalanilayotgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetensiyasini rivojlantirish (Biologiya fanini o'qitish misolida) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya fanidan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study), PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturlariga uyg'unlashtirish hamda interfaol ta'lim metodlari asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga doir takliflardan Respublika ta'lim markazi va YuNESKOning 235UZB1000 "Farg'ona vodiysida yoshlarda ijtimoiy uyg'unlik" mavzusiga oid loyihadagi vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024 yil 15 martdagi 05-45-451-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlari (TIMSS, PISA) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari hamda interfaol ta'lim metodlari bilan ishlash ko'nikmalari rivojlantirilgan;

biologiya ta'limida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish tuzilmasini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan faoliyatga tayyorlash mazmuni hamda STEAM yondasuvining didaktik maqsadlari (bilimlarga tayanib birgalikda ishlash, nazariya va amaliyot birligi, fanlararo integratsiya, kasbiy sohalarga tayyorgarlik) bilan integratsiyalashga oid taklif va tavsiyalari "Biologiya darsligi (umumta'lim maktablari 7-, 10-sinflari uchun)" mazmuniga singdirilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024 yil 15 martdagi 05-45-451-son ma'lumotnomasi). Natijada, biologiya ta'limi samaradorligini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish hamda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga erishilgan.

elektron axborot ta'lim muhitida kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya ta'limining zamonaviy axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish imkoniyatlarini joriy etishga qaratilgan elektron axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga oid takliflar O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar uchun" radioeshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"ning 2024 yil 29 yanvardagi 04-36-133-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi rivojlanishiga erishilgan;

biologiya ta'limida o'quvchilarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mazmunini ta'limni axborotlashtirish talablari hamda didaktik maqsadlari bilan integratsiyalash asosida ishlab chiqilgan "Kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya ta'limi mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish" modeliga oid takliflar 7-, 10-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024 yil 15 martdagi 05-45-451-son ma'lumotnomasi). Natijada, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan biologiya darslarini tashkil etish va o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini oshirish imkoniyati oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy-metodik ishlar, shulardan, 2 ta darslik, 2 ta metodik qo'llanma, O'zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar qismidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Biologiyadan ta'lim mazmunini takomillashtirishda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kompetensiyaviy yondoshuv asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, biologiya ta'limida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari va tamoyillar yoritilgan, hamda biologiya ta'limida o'quvchilar kompetentligini innovatsion usullar asosida takomillashtirishning didaktik shart-sharoitlari o'rganilgan.

Shuningdek, kompetensiya muammosining ta'lim sohasiga kirib kelishi va uning rivojlanish tarixi bosqichlari, kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyati haqidagi fikr-mulohazalar, o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarning turlari va darajalari hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim nazariyasi va uning asosiy tushunchalari bayon etilgan. Tabiiy fanlar bo'yicha umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturida ham umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladigan Tabiiy va iqtisodiy fanlar bo'yicha o'quvchilarda rivojlantiriladigan umumiy kompetensiyalar (ilmiy savodxonlik kompetensiyasi, amaliy kompetensiyalar, tayanch kompetensiyalar (kommunikativ, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish)) ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchilarda mazkur kompetensiyalarning rivojlanishini ta'minlash bo'yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

Biologiya fanidan o'quvchilarning tayanch (biologik bilimlarni amaliyotda qo'llash) kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy, laboratoriya mashg'ulotlar, amaliy topshiriqlar hamda biologiyaga doir mashq va masalalar to'plami ishlab chiqilgan va ularning o'quvchilarda kompetensiyalarni rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. O'quvchilarda kompetentlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini va ularning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonlariga tayyorgarlik darajalarini aks ettiruvchi tamoyillar (ilmiylik, tizimlilik, integrativlik, onglilik, faollik, nazariya va amaliyotning birligi, faoliyatga ijobiy munosabat, maqbul tanlov, tushunarlilik, ko'rgazmalilik) aniqlangan.

Biologiya ta'limida o'quvchilar kompetentligini innovatsion usullar asosida takomillashtirishning didaktik shart-sharoitlari o'rganilib, biologiya fanidan o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishda innovatsion va an'anaviy usullar asosida tashkil etilgan darslarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan (1-jadval).

Biologiya fanidan o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishda innovatsion va an'anaviy usullar asosida tashkil etilgan darslarning qiyosiy tahlili

№	An'anaviy usullar asosida tashkil etilgan darslar	Innovatsion usullar asosida tashkil etilgan darslar
1.	O'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan talab va ehtiyojlariga mos holda yo'naltirilganligi.	Fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanish tendensiyasiga muvofiq yo'naltirilganligi.
2.	O'quv mashg'ulotlarining guruh (jamo) shaklida o'tkazish.	O'quv mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilar faoliyatini juftlikka yoki kichik guruhlarga ajratgan holda yohud jamoaviy munozara shakllarida tashkil qilish.
3.	Ta'lim jarayonining pedagog rahbarligida tashkil etilishi.	O'quv jarayonini innovatsion ta'lim texnologiya va metodlari (Keys, SVOT-tahlil, Assesment texnologiyasi, SCORE va boshqalar) shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari (muammoli, modulli, hamkorlikdagi, loyiha ta'lim texnologiyalari) asosida samarali tashkil qilish.
4.	Ta'lim tizimida dars mashg'ulotlariga o'qituvchi motivatsiyasi asosida yondashish.	O'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari, o'qib-o'rganish talablarini chuqur tahlil qilgan holda kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshirish.
5.	O'quvchilarga nimani, qancha, qanday usulda o'rganishning belgilab berilishi, "tinglovchi", "qabul qiluvchi", "xotirasida saqlovchi" sifatida harakatlanishi.	O'quvchilarga mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini ifoda etish, munozaraga kirishish, muammolarga tanqidiy yondashish, o'zlari uchun o'zlari qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratiladi.

Innovatsion faoliyat asosida kompetensiyaviy yondashuvni yo'lga qo'yish o'quvchilarning ijtimoiy hayotda faol shaxs sifatida egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan samarali foydalana olishlariga yordam beradi. Mazkur bobda biologiya ta'limida innovatsion faoliyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi samarali usullar (Fikrlarning uzluksiz estafetasi, Dunyoqarashlarni shakllantirish, O'z-o'zini rag'batlantirish, Rollar taqsimoti, O'qituvchining o'z ustida ishlashi, Rollar almashinuvi) aniqlangan va ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan.

Biologiya ta'limida o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, jumladan shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish kutilgan natijalarni berishi ilmiy isbotlangan. Xususan, o'quvchilarda rivojlantirilishi zarur bo'lgan kompetensiyalardan eng muhimi ularning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi hisoblanadi. Shu sababli, ushbu bobda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar yoritilgan hamda umumta'lim maktablarida ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etishning metodik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Bugungi kunda umumta'lim maktablari biologiya ta'limida o'quvchilarning kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantirishning o'ziga xos zamonaviy "STEAM ta'limi" (Science - tabiiy fanlar, Technology - texnologiyalar, Engineering - texnik ijodkorlik, Art - san'at va ijod, Mathematics - matematika) yondashuvi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Biologiya fanini o'qitishda STEAM yondashuvini amalga oshirishning o'quvchilar rivojlantiriladigan ijobiy xususiyatlari (o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, faol muloqotga kirishish va jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantirish, texnik fanlarga qiziqishlarini rivojlantirish) aniqlangan hamda STEAM texnologiyalarini tashkil etish bosqichlari yoritilgan.

Biologiya ta'limida o'quvchilarning faolligi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni xalqaro tajribalar, standartlar va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish hamda xalqaro tajribalarni o'rganish maqsadida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlari (TIMSS-4- va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash; PISA-15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash; PIRLS-boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash) da ishtirok etish vazifalari belgilandi.


Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda tadqiqot ishida o'quvchilarda biologik bilimlarni rivojlanishini ta'minlovchi amaliy topshiriqlar va ular bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **"Kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish metodikasi"** deb nomlangan ikkinchi bobida biologiya fanidan o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish metodikasi, Biologiya ta'limida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishini ta'minlovchi elektron axborot ta'lim muhitining mazmuni va tamoyillari hamda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va ta'lim jarayonini optimallashtirishda elektron ta'lim resurslarini yaratish metodikasi takomillashtirilgan.

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimining takomillashtirilishi ko'p jihatdan o'quvchilarning pedagogik mahorati, kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, ish tajribasi hamda ta'lim jarayonlarining innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etilishiga bog'liq. Mazkur bobda biologiya darslariga interfaol ta'lim jarayonini joriy qilishning afzalliklari va biologiya darslari mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari (Toifalash jadvali, Qarorlar shajarasi, FSMU texnologiyasi, Rezyume, Tushunchalar tahlili, Loyiha, Assesment, Keys

texnologiyasi) ning mazmun-mohiyati ochib berilgan, mavzular bo'yicha namunalar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan biologiya darslariga interfaol ta'lim jarayonini yo'lga qo'yish imkoniyatlari aniqlangan (1-rasm).



1-rasm. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan biologiya darslariga interfaol ta'lim jarayonini yo'lga qo'yish imkoniyatlari


Olib borilgan izlanishlar va kuzatishlar asosida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan biologiya ta'limining bir nechta muhim qoidalari ishlab chiqildi (2-jadval).

**Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan biologiya ta'limida
o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish qoidalari**

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan biologiya ta'limida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish qoidalari				
Birinchi qoida	Ikkinchi qoida	Uchinchi qoida	To'rtinchi qoida	Beshinchi qoida
Asosiy maqsad o'quvchilar ning kompetensiyaviy rivojlanishi hisoblanadi, o'qitishning barcha bosqichlarida sub'ekt sifatida qaraladi. O'quvchilar ning faolligi oshiriladi.	O'quv-bilish jarayonini tashkil etishning bosh mezonini o'quvchilarning kompetensiyaviy rivojlanish parametrlari hisoblanadi.	Ta'lim jarayonlarida o'quvchilarning faoliyati mustaqillik, o'z-o'zini namoyon etish, faollik ko'rsatish, yangi g'oyalar ishlab chiqish, mustaqil fikr yurishi, kabi xislatlari asosiy o'ringa chiqadi.	Ta'lim jarayonlari o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar jamoasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan faoliyatga asoslanadi.	O'quvchilarning shaxsiy rivojlanishlari, o'z ustida ishlashi hamda birgalikda faoliyatlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi.

Shuningdek, mazkur bobda biologiya ta'limida o'quvchilar axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishini ta'minlovchi elektron axborot ta'lim muhiti mazmuni va tamoyillarining nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, ta'limni optimallashtirish va o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanishga oid xorijiy davlatlar tajribalari tahlil qilingan, hamda biologiya ta'limida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishda elektron axborot ta'lim resurslari (EATR) ni yaratish va ulardan samarali foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan biologiya ta'limining elektron axborot ta'lim resurslar (EATR) manbalariga izoh berilgan (2-rasm).



2-rasm. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan biologiya ta'limining elektron axborot ta'lim resurslar (EATR) manbalari

Biologiya ta'limida EATRLaridan foydalanishning quyidagi e'tiborli jihatlari aniqlangan: o'rganilayotgan o'quv-ma'lumotlarni animatsiya, audio va video shaklda taqdim etish; o'quvchi idrok va bilish jarayonining to'liq ishtirokchisiga aylanadigan o'quv jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchilarning interfaol hamkorligi; har xil tashqi axborot manbalari bilan mustaqil ishlash imkoniyati; o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni onlayn test sinovlari tizimlari orqali doimiy monitoring qilish va baholash.

Shuningdek, biologiya ta'limini EATRLari yordamida o'qitish, o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari ajratib ko'rsatilgan bo'lib, biologiya fani bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi kompyuterning dasturiy vositasi Hot Potatoes 7 dasturining imkoniyatlari aniqlangan hamda biologiya fanidan mavzular kesimida namunalar ishlab chiqilgan (3-rasm).




3-rasm. Hot Potatoes 7 dasturi asosida biologiya fanidan elektron nazorat testlarini yaratish

Multimediali elektron o‘quv kurslarni yaratish imkoniyatini beruvchi pedagogik dasturiy vositalar ichida yuqori reytingga ega bo‘lgan dasturlardan biri Ispring QuizMaker7 dasturi biologiya ta‘limida ham o‘quvchilarda kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu dastur yordamida fanga oid 11 xildagi elektron nazorat testlarini yaratish imkoniyati ochib berilgan (4-rasm).



4-rasm. O‘zaro moslik o‘rnatish va so‘zlar banki testlari

Tadqiqot ishida asoslangan ilmiy xulosalar, amaldagi me‘yoriy hujjatlarda belgilangan talablar doirasida o‘quv jarayoni uchun “Kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya ta‘limi mazmunini takomillashtirish va o‘quvchilar kompetensiyasini rivojlantirish” modeli ishlab chiqildi. Ushbu model o‘z xususiyatiga ko‘ra, maqsadni, vazifalarni, bosqich va darajalarni, modelni amalga oshirish mexanizmlarini, pedagogik shart-sharoitlarni, EATRlarini o‘z ichiga olgan holda, erishiladigan natijani va o‘quvchilarda biologiya faniga oid kompetensiyalarni rivojlanganlik darajasini aks ettirgan (5-rasm).



5-rasm. Kompetensiyaviy yondashuv asosida biologiya ta'limi mazmunini takomillashtirish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish

Ushbu model o'z xususiyatiga ko'ra, maqsad, vazifalar, bosqich va darajalar va modelni amalga oshirish mexanizmini, pedagogik shart-sharoitlarni, elektron

ta'lim resurslari va vositalarini o'z ichiga olgan holda, erishiladigan natijani va o'quvchilarda biologiya faniga oid kompetensiyalarni rivojlanganlik darajasini aks ettirgan. Modelning asosiy elementi–maqsad hisoblanadi. Taklif etilayotgan modelning *maqsadi* umumta'lim maktablari biologiya ta'limida o'quvchilarning kompetensiyalarini yuqori darajada rivojlantirish hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi va tahlil natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida biologiya ta'limini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish va o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi va Tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlili va samaradorlik darajasi aniqlangan.

Pedagogik tajriba–inov ishlari 2020–2023 o'quv yillarida Namangan viloyati 5-umumta'lim maktabi va Namangan shahar 74-umumta'lim maktabi, Toshkent shahar 178-IDUM va 302-umumta'lim maktabi, Xorazm viloyati 29-umumta'lim maktabi va 7-umumta'lim maktablarida *aniqlovchi, ta'kidlovchi va yakunlovchi* bosqichlarda tashkil etilib, unda jami 496 nafar respondent o'quvchilar ishtirok etishdi.

Tajriba-sinov ishlari (TSI) dan asosiy maqsad quyidagilardan iborat bo'ldi: o'quvchilarning biologiya fanidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirgan bilimlari qay darajada xotirasida saqlanib qolganligini (takrorlash darajasi) aniqlash; ishlab chiqilgan didaktik materiallar, o'quv-metodik ta'minot o'quvchilarda kompetensiyalarning rivojlanishiga qanchalik yordam berishini aniqlash; biologiya faniga oid umumiy kompetensiyalarni aniqlash uchun ishlab chiqilgan test topshiriqlarining sifatini va imkoniyatini aniqlash; darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar uchun yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni o'rganish; o'quv yili davomida o'quvchilarda kompetensiyalarning rivojlanish dinamikasini o'rganish; o'quvchilarda biologik kompetensiyalarni samarali rivojlantirish uchun ta'lim texnologiyalarini tanlash; o'quvchilarda kompetensiyalarning rivojlanganligini baholash mexanizmlarini sinab ko'rish; tegishli taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

